

**Abirova Umida Nazarovna,**  
*Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi,  
Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat markazi tadqiqotchisi.  
e-mail: umidaabirova@mail.ru*



## **O‘ZBEKISTONDA OILA, MAHALLA VA TA’LIM MUASSASALARINING IJTIMOY-PEDAGOGIK HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI**

**Annotatsiya.** Maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik hamkorligi masalasi xorijiy mamlakatlar tajribalari bilan qiyosiy-tahliliy o‘rganildi hamda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar ta’lim-tarbiyasi, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish borasida o‘zlarining salmoqli hissasini qo‘shgan olimlarimiz ilmiy-tadqiqot ishlarini qiyosiy o‘rganish natijalari aks ettirilgan. Shuningdek, maqolada oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik hamkorligini takomillashtirish yo‘llari, olib borilgan tajriba-sinov natijalari, tashkil etilgan seminar-trening natijalari, taklif, tavsiya va xulosalar yoritilgan.

**Аннотация.** В статье сравнительно и аналитически изучен вопрос о социально-педагогическом сотрудничестве семьи, махалля и образовательных учреждений в воспитании молодежи Нового Узбекистана с опытом зарубежных стран, а также вопросы образования и воспитания молодежи в Республики Узбекистан, развитие их духовно-нравственных качеств, отражены результаты сравнительного изучения научно-исследовательских работ наших ученых, внесших свой значительный вклад. Кроме этого, в статье описаны пути совершенствования социально-педагогического сотрудничества семьи, махалля и образовательных учреждений, результаты проведенных экспериментов, итоги организованных семинаров и тренингов, предложения, рекомендации и выводы.

**Annotation.** In the article, the issue of social-pedagogical cooperation of the family, makhalla and educational institutions in the education of young people in New Uzbekistan was studied comparatively and analytically with the experiences of foreign countries, and the education and upbringing of young people in the Republic of Uzbekistan, the development of their spiritual and moral qualities. the results of the comparative study of the scientific research works of our scientists who made their significant contribution are reflected. In addition, the article describes ways to improve social-pedagogical cooperation of families, makhalla and educational institutions, the results of conducted experiments, the results of organized seminars and trainings, proposals, recommendations and conclusions.

**Tayanch tushunchalar:** *shaxs, ta'lim, tarbiya, oila, mahalla, ta'lim muassasasi, ijtimoiy, ma'naviyat, ma'rifat, hamkorlik, faoliyat, qobiliyat, intizom.*

**Ключевые слова:** *человек, образование, воспитание, семья, махалля, образовательное учреждение, социальность, духовность, просвещение, сотрудничество, активность, способность, дисциплина.*

**Keywords:** *person, education, upbringing, family, makhalla, educational institution, social, spirituality, enlightenment, cooperation, activity, ability, discipline.*

**Kirish.** O'zbekistonda bugungi kunda barcha sohalarida inson, inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan ulkan islohotlar olib borilmoqda. Xususan, ta'lim-tarbiya sohasida ham bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan innovatsion g'oyalar mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yoshlarni hamkorlikda milliy va zamonaviy ruhda tarbiyalab, ularga innovatsion g'oyalarni singdirish bugungi kunning talabi hisoblanadi.

Yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asnoda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda<sup>1</sup>.

Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning pedagogik xususiyatlarini, jihatlarini ajratib olib tahlil qildik. Avvalo, tahlil qilishni bu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar, ularning bajarilishi va amalga oshirilishidan kelib chiqqan holda tadqiq etdik.

**Asosiy qism.** O'zbekistonda bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasi oila, mahalla va ta'lim muassasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hamkorligining bosh, ustuvor masalasi hisoblanadi. Buning uchun "ma'naviy-ma'rifiy" tushunchasini yoritish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizning dunyodagi o'rni, darajasini belgilovchi omillardan biri bu ma'naviyatdir. Bu o'zbek davlatining uch ming yillik tarixidagi rivojlanish jarayonida tasdiqlangan va shu boisdan milliy mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ma'naviy qadriyatlar masalasi, ularni asrash, tiklash va kelajak avlodga yetkazish eng dolzarb masalaga aylandi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. // 2017 йил 23 декабрь, № 258 (6952). – 5 б.

Shu maqsadda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligida olib boriluvchi ma'naviy-ma'rifiy ishlar negizini to'la yoritish uchun "ma'naviyat" va "ma'rifat" tushunchalarining lug'aviy ma'nolarini tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ma'naviyat arabcha so'z bo'lib "ma'nolar majmuyi" – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari yig'indisini bildiradi. Butun insoniyat o'zining ming yillik tarixiy taraqqiyotida hayotiy tajriba to'plab, uni o'rab turgan tabiat, borliq bilan hamkorlik qilib, tabiat hodisalari, hayot, Vatan, millat, xalq oldidagi burchlari va shaxsning shaxs bo'lib shakllanishidagi barcha ma'lumotlarni, faoliyatni o'zidan keyingi avlodga o'rgatib kelgan. Shu jumladan, o'zbek xalqi ham o'ziga xos bilimlar majmuyini asrlar davomida to'plab keldi. Lekin 120 yildan ortiq davom etgan milliy mustamlakachilik milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotiga o'zining juda katta salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Butun bir millatni o'zining ming yillik tarixidan, o'z ajdodlaridan ma'naviy uzoqlashtirishdek vayronkor siyosat amalga oshirildi. Shuning uchun O'zbekiston milliy mustaqilligining ilk yillaridan boshlab xalqimizning o'ziga xos milliy ma'naviyatini – milliy ma'nolar majmuyini tiklash, rivojlantirish va yanada shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Chunki har bir millatning o'z ma'naviyatini aniqlashi, bilishi va o'z ixtiyori bilan aql-idrokining, ongining tarkibiy qismiga aylantirishi millatni mustahkamlaydi, uning o'ziga bo'lgan ishonch-e'tiqodi va qadr-qimmatini mustahkamlaydi. Albatta, bu sobiq tizim davridagi hukmron mafkuraga zid edi. Shu sababli "Ma'naviyat" tushunchasi tilimizdan siqib chiqarilgan edi<sup>2</sup>.

Ma'rifat tushunchasi harakatni ifodalab, arabcha "bilmoq" degan ma'noni bildiradi. Ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar yig'indisi asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat "ma'rifat" so'zining lug'aviy mazmunini tashkil qiladi. Ma'rifat so'zi tasavvuf ta'limotining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ilmlarni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) bilimlarga ajratgan so'fiylar ma'rifatni "ilmi botiniy" deb qabul qilishgan.

Oila, mahalla va ta'lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning nazariy o'rganilganini yoritish jarayonida, avvalo, barkamol avlodni tarbiyalashdagi uch omilning ijtimoiy hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ham muammoni o'rganish jarayonida dastlab ijtimoiy hamkorlik tushunchasining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy hamkorlikning mazmun-mohiyatini yoritishda muammoning ijtimoiy pedagogik jihatlarini yoritish zarurati tug'iladi. Bu sohani

***O'zbek xalqi ham o'ziga xos bilimlar majmuyini asrlar davomida to'plab keldi. Lekin 120 yildan ortiq davom etgan milliy mustamlakachilik milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotiga o'zining juda katta salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Butun bir millatni o'zining ming yillik tarixidan, o'z ajdodlaridan ma'naviy uzoqlashtirishdek vayronkor siyosat amalga oshirildi.***

<sup>2</sup> Муस्ताқиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Тошкент, "Шарқ", 1998. – 115 б.

***Ma'naviy  
tarbiyaning gender  
xususiyati islom  
ma'rifatida ham  
o'z aksini topgan.***

o'rgangan ijtimoiy-tarixiy, tahliliy manbalardan ham ko'rinadiki, ijtimoiy hamkorlik murakkab tarzda namoyon bo'ladigan shaxs manfaatlari, shaxslararo munosabatlar va har bir inson faoliyatining mazmuni hamda davlat va nodavlat tashkilotlari, ya'ni oila, mahalla va ta'lim muassasalarining birgalikdagi faoliyatini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi mexanizm hisoblanadi. Bu esa bizni muammoning metodik qirralarini o'rganishdan oldin shaxslararo hamda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorlik faoliyati masalasini pedagogik jihatdan yoritishga undaydi. Ijtimoiy hamkorlikni tashkil etishda, avvalambor, oila, mahalla va ta'lim muassasalari mavjud holatlarni o'rganishni talab etadi. O'ylaymizki, ijtimoiy hamkorlikning pedagogik mexanizmini tadqiq etish muammo mohiyatini aniqroq belgilashga yordam beradi.

Pedagogika fanlari doktori M.Inomova yoshlarni oilada ma'naviy-axloqiy tarbiyalash xususida olib borgan doktorlik dissertatsiyasida "Oilaviy tarbiya" pedagogik tushuncha bo'lib, u ota-onalarning o'z hayotiy faoliyatlari, turmush tarzlari, an'analari yordamida bola shaxsiga siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, g'oyalar va tasavvurlarni shakllantirishni nazarda tutib, bir maqsadga qaratilgan holda muntazam olib boriladigan izchil ma'naviy ta'sir o'tkazish jarayonini ifodalaydi"<sup>3</sup>, degan xulosaga kelgan. Bu esa oilaviy tarbiyaning mazmun-mohiyati uni pedagogik jarayon sifatida tadqiq etishning keng imkoniyatlari mavjudligini ochib beradi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda, oila mustahkamligini ta'minlashda ularning ota-onalari saviyasi, turmush tarzi, xarakter xususiyati va kasb-kor darajasiga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Oila, mahalla va ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga oilaviy tarbiyaning asl mazmun-mohiyatini ongli ravishda yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. "Qiz bola yetti yoshdan oshgach, na otasi, na akalari o'pib ko'rishmaganlar, chunki uning organizmida balog'at faoliyati boshlanib, bu qiz bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishini bilganlar" – deb yozadi o'zbek xalq rasm-rusumlari to'plagan olimlar H.Umirov. Q.Haydarov va M.Xoliqov<sup>4</sup>.

Ma'naviy tarbiyaning gender xususiyati islom ma'rifatida ham o'z aksini topgan. Bu haqida O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi,

<sup>3</sup> Иномова М.О. Оилада болаларни маънавий-ахлокий тарбиялашда миллий кадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Пед. фанл. док. ...дисс. – Тошкент: 1998. – Б. 34.

<sup>4</sup> Умаров Х., Хайдаров Қ., Холиқов М. Халқ расм-русумлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг Самарканд бўлими, 1991, – Б. 8.

muftiy Usmonxon Alimov shunday yozadi: “Ayollar iffatli kiyinishi va o‘zlarini yaxshi tutishi lozim. Bu shundan dalolat beradiki, o‘zbek qizlarining milliy tarbiya asosida kiyinishlari, o‘zlarini tutishlari va ularda ma’naviy axloqiy fazilatlar shakllantirilsa, ular g‘arbdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat” xurujlari iskanjasida qolmaydi”<sup>5</sup>.

Siyosiy fanlar doktori, professor Qahramon Quranbayev o‘z tadqiqoti natijalaridan kelib chiqib, talaba-yoshlarda ma’naviy fazilatlarni shakllantirishning mohiyati ularda xalq, Vatan mafaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatish ko‘nikmalarini qaror toptirish, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun shart-sharoit yaratish hamda eng muhimi yoshlarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishdan iborat ekanligini<sup>6</sup> ta’kidlaydi. Bu esa yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishni ijtimoiy pedagogik hamkorlik vazifalariga aylantirishda qimmatli ahamiyatga ega.

“Bunday murakkab sharoitda yoshlar o‘rtasida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarimiz samaradorligini oshirishdan ham muhimroq ish yo‘q. Buning uchun, eng avvalo, yoshlarimizda o‘z ma’naviy qiyofasini boyitishga imkon beradigan sog‘lom ehtiyojni shakllantirish o‘ta zarurdir”<sup>7</sup>, deb takidlaydi A.Mavrulov “Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi” asarida.

Darhaqiqat, bugungi glolallashib borayotgan davrda yoshlarimizning ongi va qalbini yod, tashqi buzg‘unchi mafkuraviy jarayonlardan asrash uchun ularda sog‘lom mafkuraviy immunitetni aynan oila, mahalla va ta’lim muassasalari ijtimoiy hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida shakllantirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan pedagogika fanlari doktori M.Quronov tomonidan ishlab chiqilgan, o‘quvchilarning milliy tarbiyalanganlik mezonlari, ko‘rsatkichlari, darajalari va fazilatlarini o‘lchashning uch qatlamli o‘lcham sistemasi alohida ahamiyatga ega. Zero, O‘zbekiston vatanparvarligi, milliy g‘ururlik, millatlararo muloqot madaniyati, vijdoniylik, milliy odob va milliy mafkuraviy onglilikni uyg‘un shakllantirishda ilmiy va xalq pedagogikasining amaliy birligidan kelib chiqib yondashish rivojlanayotgan shaxsning milliy tuyg‘usiga bevosita va bilvosita bog‘lanuvchi fazilatlar hisoblanadi<sup>8</sup>.

***“Ayollar iffatli kiyinishi va o‘zlarini yaxshi tutishi lozim. Bu shundan dalolat beradiki, o‘zbek qizlarining milliy tarbiya asosida kiyinishlari, o‘zlarini tutishlari va ularda ma’naviy axloqiy fazilatlar shakllantirilsa, ular g‘arbdan kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat” xurujlari iskanjasida qolmaydi”***

<sup>5</sup> Алимов У. Фазилатли авлод. — Тошкент: “Мухаррир”, 2019. — Б. 42.

<sup>6</sup> Қуранбаев Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. — Тошкент, 2000. — Б. 4.

<sup>7</sup> Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. — Тошкент: “О‘zbekiston”, 2008. — Б. 11-12.

<sup>8</sup> Қуранов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. — Тошкент, 1998. — 363 б.

Ushbu yondashuvda axloqiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, siyosiy, ijtimoiy tarbiya yo'nalishlarining o'zaro aloqadorligi ta'kidlanadi.

“Birimiz g'isht terishni, birimiz provayderlikni, birimiz avtomobil haydashni, birimiz bemorning tishini sug'urishni qoyillatamiz. “Bola tarbiyalash”nichi?” kabi amaliy uslubiy vaziyatlar texnologiyasi asosida farzand tarbiyasi har bir oilada ota-onaning har kunlik, olib boradigan pedagogik vazifasi ekanligi aniq pedagogik vaziyatlar bilan yoritib berilmoqda.

Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarni chiqarish mumkin:

- har bir ta'lim muassasasi va mahallalarda yillik reja asosida muntazam, uzluksiz ijtimoiy hamkorlik olib borilishi shart;
- ta'lim muassasalari va mahallalarda “Ota-onalar universitetlari tashkil etilishi zarur;
- har bir oila kitobxon tamoyili asosida oila va mahallalarda kutubxonalar tashkil etish maqsadga muvofiq;
- mahalla va ta'lim muassasalarida tashkil etilgan to'garaklar faoliyati muntazam nazorat qilib borilishi zarur.

***Tarbiya ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshadigan hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib, shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir.***

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlariga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisidir. Demak, tarbiya ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshadigan hodisa bo'lib, insonning shaxs bo'lib, shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir.

Oila, mahalla va ta'lim muassasalarining ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish hamda bu borada xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan ilmiy markazlar faoliyatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Oila, mahalla va ta'lim muassasalari ijtimoiy hamkorligini takomillashtirishda ishchi reja tuzish, rejani uzviylik va izchillik asosida ijroga yo'naltirish samarali natijadorlikni ta'minlaydi.

<sup>9</sup> Убайдуллаева Р., Ата-Мирзаев О., Куронов М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Т.: “Ижтимоий фикр”, 2012, – Б. 114–115.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. // 2017 йил 23 декабрь, № 258 (6952). – 5 б.
2. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабон лугат. – Тошкент: “Шарқ”, 1998. – 320 б.
3. Иномова М.О. Оилада болаларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда миллий қадриятлардан фойдаланишнинг педагогик асослари: Пед. фанл. док. ...дисс. – Тошкент: 1998. – Б. 34.
4. Умаров Х., Ҳайдаров Қ., Холиқов М. Халқ расм-русумлари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг Самарқанд бўлими, 1991, – Б. 8.
5. Алимов У. Фазилатли авлод. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2019. – Б. 42.
6. Қуранбаев Қ. Талабаларнинг маънавий-ижтимоий фаолликларини ривожлантиришнинг педагогик асослари. – Тошкент, 2000. – Б. 4.
7. Маеврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2008. – Б. 11-12.
8. Қуронон М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент: 1998. – 363 б.
9. Ўбайдуллаева Р., Ата-Мирзаев О., Қуронон М. Оила ва баркамол авлод тарбияси. – Тошкент: “Ижтимоий фикр”, 2012, – Б. 114–115.